

Yashil

IQTISODIYOT
TARAQQIYOT
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 420 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-iyunda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxridinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvar Khanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhad, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro‘yxatdan
o’tkazilgan.

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O’zR
Tabiat resurslari vazirligi, O’zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK
departamenti.



MUNDARIJA

Oliy ta'lif islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda	20
Muxiddin Kalonov	
"Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish	24
Muhammadiyeva Maftuna	
Oliy ta'lif tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati	27
Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtaidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash.....	31
Dustmurodov Orifjon Ismatillovich	
Перспективы развития средств размещений в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана	40
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari	49
Toiyirov Yunus Alamovich	
Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari.....	55
Rustamov Alisher Raxmataliyevich	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lif maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish.....	62
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....	67
Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich	
Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....	71
Usmonov Sharofiddin Pazltdinovich	
Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari.....	76
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
Oliy ta'lif muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....	81
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar	86
Jivanova Nargiza Esanboevna	
Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....	93
Z. Abdikarimova, S. Madaminov	
Savdo korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	97
Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov	
Sociological Assessment of Migration Processes	102
Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli	
Current issues of business management in the context of digitalization of the economy	112
Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich	
Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....	118
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	



Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce	125
Abirkulova Sohibjamol	
Improving the Conceptual Framework for Modernizing the Tax System (Using the Example of Uzbekistan).....	130
Bakhrom Nomazov	
Ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraufdanding platformasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	136
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Evaluating the Environmental Sustainability of Uzbek Firms in the Green Economy.....	142
Nurbek Xalimjonov Ulugbek ugli	
O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishida inson kapitalining roli	148
Eshmirzayev Faruddin Ilhomjonovich, Salimova Zaxro Sobirjon qizi	
Agrokластерларда асосија виситаларни модернизациялаш ва та'мirlash xarajatlarini tahlil qilish	155
G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich, Mirzayev Behzod Abdug'ofur o'g'li, Narzullayev Nodirbek Aziz o'g'li	
Improving the Practice of Increasing the Effectiveness of Managing Innovation Processes in Commercial Banks	160
Juraev K. T.	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish	164
Mamasoatov Dilshod Ravshanovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda soliqlarning roli va ahamiyati.....	169
Madraximov Baxtiyorjon Ortiqboy o'g'li, Rizayev Xabib Abduraufovich, Namazov Sa'dulla Namozovich	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning joriy holati tahlili.....	175
Rahmatullayeva Dilbar Olimovna	
Buxoro viloyatida savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini takomillashtirish..	181
Raxmatov Akmal Anvar o'g'li	
The Contribution of Transport in the Development of Tourism Industry (Case Study: Uzbekistan).....	187
Rofeeva Rukhshona Shavkatovna	
Yoshlarning sayohat manzillarini tanlashdagi omillar	192
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
Improving the Effective use of Funds From Taxes and Fees in Kashkadarya Region	196
Shakhzod Zokhidov	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarish	202
Kadirova Shaxnoza Ilhomovna	
Yangi O'zbekiston oliv ta'lif muassasalarida kadrlar tayyorlash masalalari.....	207
Usmonov Baxodir Suvonqulovich	
Temir yo'l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari	211
Nasimov Shavkat Vasiyevich	
O'zbekistonda banklararo raqobat.....	219
Zunnunova Xulkar Muxtorovna	
O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashni takomillashtirish	225
Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna, Kuchkarov Sanjar Baxtiyarovich	
Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari	229
Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov	
Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati.....	233
Aripov Oybek Abdullayevich, Madiyorov Shavkatbek Muxtarovich	



Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to'g'risida hisobot tuzishning bosqichlari.....	237
Eshonqulov Azamat Abdiraximovich	
Davlat moliyaviy nazoratining turlari va shakllari.....	241
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
Tog' turizmini rivojlantirish manfaatlari yo'lida investitsiya resurslarini to'plash mexanizmlarini ishlab chiqish samaralari.....	245
Xidirov Alimardon Dagarovich	
The Main Role of the Teacher While Managing the Classroom and Some Aspects of Teaching English	248
Nilufar Turdiyeva	
Davlat xususiy sherikchilik faoliyatining menejment funksiyalari tizimida muvofiqlashtirishning ahamiyati	252
Suleymanov Farrux Raximjon o'g'li	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi	256
G. Sh. Qo'idosheva, A. J. Toshboyev	
Логистика в Азии: опыт и перспективы оптимизации	260
Каюмова Паризода	
Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari... G. I. Abdulxamidova	266
Повышение эффективности использования местных налогов и сборов в Кашкадарье: международная перспектива	272
Shahzad Zokhidov	
Financial and Credit Support for Investment and Innovative Developing Activities of a Tourist Enterprise	275
Rozokov Mukhammadaziz Mansurovich	
Роль контроля качества по хранению и переработке зерна в обеспечении продовольственной безопасности Республики Узбекистан	282
Холбекова Дилобар Расулжон кизи	
O'zbekistonda mahalla boshqaruvi tizimi faoliyatini takomillashtirish masalalari.....	289
Gafurov Ubaydullo Vaxabovich	
Kichik biznes va tadbirkorlik sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishning xorijiy tajribasi	296
Dilnoza Meyliyeva	
Cross Cultural Preoblems in International Business Negotiations	301
Xoldarova Fariza Tuxtabayevna	
Yengil sanoatning raqobatbatdosh hududiy-ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani qo'llash	304
Haydarova Shoxista	
Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion jarayonlarni rivojlantirish xususiyatlari	310
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
Korxonalarda risk boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish va inson resurslaridan foydalanish istiqbollarini takomillashtirish	315
Tashpulatova Muniraxon Mahmudovna	
Spin korxonalar – texnologiyalarni tijoratlashtirishda muhim tuzilma sifatida	320
O'rinnov Dilshodjon Axmadjonovich	
Mintaqalarda makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni takomillashtirish strategiyasi	324
Xolbekova Feruza Rasulovna	



Iqtisodiy o'sish va aholi daromadlari o'rtasidagi bog'liqlikning nazariy asoslari.....	329
Hasanova Nigora Hasan qizi	
Современное состояние маркетинга на рынке ценных бумаг Республики Узбекистан.....	334
Юлдашев Жамшид Абрарович	
Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirish	340
S. A. Karabayev	
Axborot telekommunikatsiya tarmog'i korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligi	334
Temirov Anvarxon Abdulazizxonovich	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi	347
G.SH.Qo'idosheva ¹ , A.J.Toshboyev ²	
Yengil sanoatning raqobatbatdosh hududiy-ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani qo'llash	351
Haydarova Shoxista	
Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion jarayonlarni rivojlantirish xususiyatlari	
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	357
Korxonalarda risk boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish va inson resurslaridan foydalanish istiqbollarini takomillashtirish	362
Tashpulatova Muniraxon Mahmudovna	
Spin korxonalar - texnologiyalarni tijoratlashtirishda muhim tuzilma sifatida	367
O'rinoval Dilshodjon Axmadjonovich	
Yoshlarning sayohat manzillarini tanlashdagi omillar	371
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institusional tahlili.....	375
Bahriiddinov Viqorjon Akbar o'g'li	
O'zbekistonda investitsion faoliyat, uni moliyalashtirishning zamonaviy ko'lamlari	380
va o'ziga xos xususiyatlari	
Kuvatova Oliya Sheraliyevna, Husenov Muhriddin Bahriiddinovich	
Xalqaro moliya institutlari faoliyatining davlatlar rivojlanishiga ta'siri (Yevropa Tarraqiyot va Tiklanish banki misolida).....	384
Muxtorov Jahongir Muxtor o'g'li	
Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga muvofiq daromadlar hisobini tashkil etish	390
Meliboyev Akmal G'aybullayevich	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy ishlab chiqarish fondlarining t uzilishi hamda hajmi	394
Muxtaras Karimova Isroiljon qizi	
Ayollar tadbirkorligi nazariyasining takomillashuvi xususida.....	398
Sharofiddinova Gulnoza Ilhomjonovna	
O'zbekistonda soliq ma'murchiligidagi joriy etilgan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish masalalari	403
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Soliq majburiyatlari ijrosini takomillashtirish yo'llari.....	408
Mirzaaliyeva Gulchehra Abduvali qizi	
Cравнительное исследование финансовой отчетности, подготовленной в соответствии с МСФО и НСБУ.....	413
Эргашева Шахло Тургунновна	



DAVLAT SEKTORIDA BUXGALTERIYA HISOBINING XALQARO STANDARTLARIGA MUVOFIQ DAROMADLAR HISOBINI TASHKIL ETISH

**Meliboyev Akmal G'aybullayevich**O'zbekiston Respublikasi Bank moliya
akademiyasi magistr

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat sektorida xalqaro standartlar talablari va tavsiyalarini asosida daromadlar hisobini samarali tashkil etish masalalari o'r ganilgan. Bundan tashqari, davlat sektorida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish, raqamlarni shakllantirish orqali davlat sektori moliyasida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga, davlat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi o'r ganilgan.

Kalit so'zlar: budget ijrosi, rejali iqtisodiyot, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, hisob obyekti, moliyaviy hisobot.

Abstract: This article examines the issues of effective organization of income accounting in the public sector based on the requirements and recommendations of international standards. In addition, it has been studied that the preparation of financial reports based on the international standards of financial reporting in the public sector, through the formation of numbers, serves to ensure openness and transparency in the finances of the public sector, and to increase the efficiency of the use of public resources.

Key words: budget implementation, planned economy, international standards of financial reporting, account object, financial reporting.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы эффективной организации учета доходов в государственном секторе на основе требований и рекомендаций международных стандартов. Кроме того, изучено, что подготовка финансовой отчетности на основе международных стандартов финансовой отчетности в государственном секторе посредством формирования цифр служит обеспечению открытости и прозрачности финансов государственного сектора, а также повышению эффективность использования государственных ресурсов.

Ключевые слова: исполнение бюджета, плановая экономика, международные стандарты финансовой отчетности, объект учета, финансовая отчетность.

KIRISH

Hozirgi vaqtida mamlakatimiz budget va soliq siyosatida olib borilayotgan islohotlar sharoitida budget tashkilotlarini budjetdan moliyalashtirishni qisqartirish uchun olib borilayotgan tadbirlar, budget tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari ahamiyatining yuqori ekanligini ko'rsatib bormoqda. Bu borada qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy asoslar olib borilayotgan ishlar buning yaqqol dalili hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalariga bag'ishlangan Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida "Budget mablag'lаридан samarali foydalanish tizimini yanada takomillashtirish zarurligi, budget hisobidan mablag' ajratiladigan har qanday dastur yoki loyihaning sifat va miqdor ko'rsatkichlaridan iborat natijaga yo'naltirilgan indikatorlari bo'lishi kerakligi ta'kidlab o'tildi. Ma'lumki, soliq stavkalari pasaytirilishi yoki ayrim soliqlar bekor qilinishi bilan budgetga tushadigan mablag' albatta kamayadi. Buni samarali soliq ma'muriyat chiligi orqali bartaraf etish va budget barqarorligini ta'minlash mumkin. Aynan shunga erishish birinchi galdag'i vazifamiz", deya ta'kidlagan edi.

Budget ijrosi jarayonida Davlat budgeti mablag'lari va budget tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari shakllanishi hamda sarflanishini uzluksiz hisobga olish, ularni hujjatlashtirish va axborotlarni tizimli shakllantirish uchun budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi tizimi tashkil etilgan.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Umuman budjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarning talablari asosida takomillashirish masalalari bo'yicha respublikamiz iqtisodchi olimlaridan A.K.Ibragimov, B.B.Sugirbayev, M.Ostanaqulov, S.U.Mehmonov, A. Ostanaqulov, K.Sh. Ibragimov kabilar ilmiy tadqiqot olib borishgan.

Budjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarning talablari asosida takomillashtirish masalalari bo'yicha budjet hisobining standartlari tasdiqlangan bo'lib, unda budjet tashkilotlarini buxgalteriya hisobi tashkil etishning nazari va amaliy masalalari keltirilgan. M.Ostanaqulov tadqiqotlarida budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish masalari tadqiq qilingan. Iqtisodchi olim S.U.Mehmonovning ilmiy tadqiqotlarida budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi metodologiyasini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Yuqoridagi ilmiy tadqiqot ishlarida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuniga hamda budjet hisobining standartlarida budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish, budjet hisobini davlat sektorida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari bilan muvofiqlashtirish masalalari yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy mushohada, analiz va sintez usullaridan samarali foydalanilgan. Shuningdek, budjet tashkilotlarining moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishda va uni amaliyatga tatbiq etish jarayonidagi iqtisodchi olimlar va soxa mutaxassislarining ilmiy-nazariy qarashlari ilmiy abstraksiyalash metodi yordamida o'rganildi va tahsil qilindi.

Budjet tashkilotlarining moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirishning ahamiyati va uning mamlakat uchun zaruriyati, budjet tashkilotlarining barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan budjet hisobining standartlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholi farovonligini ta'minlash va mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida nafaqat xususiy sektor, balki davlat sektori ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Davlat sektori davlatning jamiyat oldidagi muhim ijtimoiy tushdagi vazifalarini bajarish va xizmatlar ko'rsatish, iqtisodiyotni tartibga solish va rag'batlantirish, aholi bandligini ta'minlash kabi qator notijorat faoliyatlarni amalga oshiradi.

Davlat sektori davlatning zamonaviy iqtisodiy tizimining bir qismi bo'lib, u erda bozor va davlat ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal qilish uchun doimiy ravishda o'zaro ta'sir qiladi. Ushbu sektor subyektlari jamiyat tomonidan o'z ixtiyorida bo'lgan resurslardan foydalanishning to'g'riliqi, samaradorligi va samaradorligini aks ettiruvchi ma'lumotlarga muhtoj. Ushbu ma'lumotni olish tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy natijalarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar – daromadlar va xarajatlar asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish orqali mumkin.

Xalqaro Buxgalterlar Federatsiyasi tuzilmasidagi Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha kengash tomonidan ishlab chiqilgan davlat sektori moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (Davlat sektorida MHXS – IPSAS – International Public Sector Accounting Standards) budjet hisobi va budjet hisobotlarini tayyorlash, ularni foydalanuvchilarga taqdim etish masalalarini tartibga soladi. Davlat sektorida MHXSni (IPSAS) joriy etish va ular asosida davlat sektori uchun standartlarni ishlab chiqish – davlat sektori institutlari faoliyatining ochiqligini va oshkorligini oshirish, ularning faoliyatini transformatsiya qilishning asosiy shartlaridan biridir.

Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarining qo'llashda davlat sektori tushunchasining qamrovini aniqlash muhim sanalib, aynan qaysi tashkilot yoki korxonalarning faoliyatini mazkur standart asosida yoritib borishni belgilash lozim. Amaliyotda davlat organlari, davlat korxonasi, davlat muassasasi kabi tushunchalar o'zaro ma'nodosh sifatida qo'llanadi. Ammo yuridik jihatdan ularning farqini aniq belgilanishi, keyinchalik moliyaviy jarayonlarga va huquqiy oqibatlarga ta'sir qiladi. Davlat unitar korxonalari, davlat muassasalarining faoliyat ko'lamini va huquqiy reglamentlarini belgilab olish nisbatan osonroq bo'lgani holda, davlat korxonasi tushunchasi turli mamlakatlar qonunchiligidagi turlicha talqin qilinadi va ular davlat sektori ichiga kiradimi yoki yo'qmi degan masala ko'pchilik holatlarda markaziy o'ringa chiqadi.

"O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari" deya ataladigan sobiq sotsialistik mamlakatlari o'zlarining davlat mulkiga asoslangan rejali iqtisodiyotini bozor tamoyillari bo'yicha faoliyat ko'rsatadigan iqtisodiyotga o'zgartirish yo'lida davlat korxonalarining moliyaviy faoliyati samaradorligi bilan bog'liq masalalar to'plamiga juda ko'plab marotaba duch kelishadi.

"Davlat ishtirokidagi korxona" tushunchasi xorijiy adabiyotlarda uchramaydi. Ushbu termin milliy qonunchiligidagi xos bo'lib, "davlat korxonasi" tushunchasiga nisbatan kengroq kamrovga ega.

Xalqaro tashkilotlar, chet el mamlakatlari tomonidan "davlat korxonasi" tushunchasining mazmunini yoritishda Butunjahon savdo tashkiloti (BST) tomonidan davlat savdo korxonasiiga berilgan ta'rifga murojaat qilinadi va fikrimizcha, uni "umum e'tirof etilgan ta'rif" sifatida ko'rish mumkin. Unga ko'ra, davlat savdo korxonasi sifatida:




- to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita korxonaning ustav kapitalida 50 foiz yoki undan ortiq ulushga davlat egalik qilsa;
- hukumat idoralarida to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita korxona direktorlar kengashi yoki shunga teng-lashtirilgan boshqaruv organi a'zolarining yarmidan ortig'ini tayinlash vakolati mavjud bo'lsa;
- hukumat korxona faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirsa yoki unda nazoratni amalga oshirish imkoniyati bo'lsa;
- davlat tomonidan korxona muayyan monopol huquqlar va ekslyuziv vakolatlar berilgan bo'lsa;
- korxonaga soliqlar bo'yicha va boshqa turli imtiyozlar berilgan bo'lsa hamda buning natijasida korxona bozordagi savdo hajmiga va uning yo'nalişlariga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lgan toifadagi korxonalar kiritiladi.¹

Ko'rinib turibdiki, BST metodologiyasi bo'yicha davlat korxonasi sifatida toifalanadigan korxonalarning ko'lami keng. Lekin har bir davlatning qonunchiligi bilan davlat korxonasingning ta'rifni, belgilari va huquqiy maqomi alohida o'rnatalidi.

O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyat, shirkat va/yoki boshqa tashkiliy huquqiy shakkarda faoliyat olib borishi mumkin. Jumladan, O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarning (2100 ta) katta ulushi (51%) mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida (1071ta) tashkil etilgan va faoliyat olib boradi².

1-rasm. Davlat ishtirokidagi korxonalar tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha taqsimoti³



Bundan tashqari, O'zbekistonda davlat mulkiga asoslangan va turli (davlat) xizmatlarini ko'rsatuvchi (28 342ta) muassasa faoliyat ko'rsatmoqda. Muassasalar "davlat korxonasi"dan farqli ravishda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 76-moddasiga ko'ra, boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo'lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to'la yoki qisman moliyaviy ta'minlab turladigan tashkilot hisoblanadi.

Muassasa o'z majburiyatlari bo'yicha ixtiyoridagi pul mablag'lari bilan javob beradi. Bu mablag'lar yetarli bo'limasa, tegishli mol-mulkning egasi uning majburiyatlari yuzasidan subsidiyalar bilan qo'llab-quvvatlaydi.

Давлат корхонаси ва муассасалар ўзларига бириктириб кўйилган мол-мulkka nisbatan qонунда belgilab qo'yilgan doirada, o'z faoliyatining maqsadlariga, mulkdorning topshiriqlariga hamda mol-mulkning vazifasiga muvofiq holda egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etish huquqlarini amalga oshiradi.

Davlat korxonasi o'ziga biriktirib qo'yilgan mol-mulkni uning mulkdorining roziligi bilangina boshqa shaxsga berishga yoki uni boshqacha usulda tasarruf etishga haqli.

Muassasa o'ziga biriktirib qo'yilgan mol-mulkni va smeta bo'yicha unga ajratilgan mablag'larga sotib olingan mol-mulkni boshqa shaxsga berishga yoki o'zgacha usul bilan tasarruf etishga haqli emas.

Korxona qiymatini baholashda baholanayotgan mulkka bo'lgan huquqlarning turi va tavsifi inobatga olinishi sababli, yuqorida ko'rsatilgan korxonalarning huquqiy shakli baholash jarayonida alohida o'rganiladi.

Budget ijrosi jarayonida aktivlar va majburiyatlarining, shuningdek mazkur aktivlar va majburiyatlarni o'zgartiruvchi muomalalarning holati to'g'risidagi axborotni to'plash, ro'yxatdan o'tkazish va umumlashtirishning tar-

1 Бутунжоҳон савдо ташкилоти, https://www.wto.org/english/tratop_e/statra_e/statra_info_e.htm

2 Таъқидлаш жоизки, давлат иштироқидаги корхоналар сони мунтазам ўзгариб боради ва ушбу маълумот 2022 йил 1 июн ҳолатига олинган.

3 www.davaktiv.uz Давлат активларини бошқариш агентлиги маълумотлари асосида, 2022 йил 1 июн ҳолатига.



tibga solingan tizimi bo'lgan budget hisobini yuritishga qo'yilgan yagona talabni budget hisobi standartlari belgilaydi.

Jumladan, budget tashkilotlarida hisob siyosatini shakllantirishga qo'yiladigan talablar, hisob obyektlari (asosiy vositalar, zahiralar va boshqalar)ni tan olish me'zonlari, baholash tartibi, hisobotlarda aks ettirish me'yorlarini belgilab beradi. Budget hisobi standartlarining bo'limlari quyidagilardan iborat:

- Hisob obyekti – hisob obyektini aniqlash, umumiy tushunchalar;
- Hisob obyektini tan olish – hisob obyektini hisobot elementlariga o'tkazish tartiblari;
- Hisob obyektini baholash – hisob obyektini baholash usullarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar hamda talablar;
- Moliyaviy hisobotda aks ettirish – hisob obyekti haqida axborotlarni moliyaviy hisobotda ochib berish va aks ettirish tartibi.

Budget hisobi va hisoboti tizimini tartibga soluvchi davlat organi – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisoblanadi va budget hisobi standartlarini tasdiqlaydi.

Xalqaro miqyosda bunday hisobotlarni tayyorlash va foydalanuvchilarga taqdim etish Davlat sektorini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari kengashi (sobiq – Xalqaro buxgalterlar Federatsiyasining Davlat sektorini qo'mitasi) tomonidan chiqarilgan Davlat sektorini buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarida (IPSAS) ko'rib chiqiladi. IPSAS maqsadlari uchun davlat sektorini milliy va mintaqaviy hukumatlarni (ya'ni, shtat, viloyat, hududiy hukumatlar), shuningdek, mahalliy hukumatlar (munitsipalitetlar) va ularning institutlarini (ya'ni, agentliklar, kengashlar, komissiyalar va tashkilotlar) o'z ichiga oladi. Davlat sektoriga xususiy notijorat tashkilotlar va muassasalar kirmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi va aholi farovonligini ta'minlashda nafaqat, xususiy sektor, balki, davlat sektorini ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Davlat sektorini davlatning jamiyat oldidagi vazifalarini bajarish va xizmatlar ko'rsatish, iqtisodiyotni rag'batlanirish, tartibga solish va nazorat qilish, aholi bandligini ta'minlash kabi qator notijorat faoliyatlarni amalga oshiradi. Davlat sektorida MHXS maqsadlari uchun davlat sektorini deganda milliy va mintaqaviy hukumatlar, shuningdek, mahalliy hokimiyatlarni va ularning tashkilotlari tushuniladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda xalqaro standartlar asosida budget hisobini isloh etishning maqsadi:

1. birinchidan, hisob yuritishning uslubiy jihatlarini xalqaro amaliyotda umumqabul qilingan me'yorlarga moslashish asosida mamlakat reytingini yanada oshirish;
2. ikkinchidan, davlat moliyasini boshqarishda hisobotlarning axborot qamrovi va shaffofigini oshirish;
3. uchinchidan, moliyaviy va statistik hisobotlarning integratsiyalashuvini ta'minlash;
4. to'rtinchidan, xalqaro munosabatlarning globallashuvi sharoitida chet el investitsiyalari hamda donorlik mablag'lari hajmini ko'paytirishdan iborat.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси, 1–2-қисмлар, 1996–1997 йил. [nrm.uz>content...](https://nrm.uz/content...)
2. Ўзбекистон Республикаси Бюджет Кодекси. Ўзбекистон Республикаси қонуни. ЎРҚ-360-сон. 26.12.2013. Ўзбекистон Республикаси қонун хужожатлари тўплами, 2013 й. №52-I-сон//www.lex.uz
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги "Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-4611-сон қарори. [lex.uz>docs/4746047](https://lex.uz/docs/4746047)
4. Раҳимова Г.М. МХҲС глобаллашуви: стандартлаштиришнинг жаҳон тажрибасини таҳлил қилиш (биринчи туркум). "Молия ва банк иши" электрон журнали. – № 5, 2020-йил, 39-бет.
5. А. Каримов, И. Кўзиев, М. Раҳимов. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш: муаммо ва истиқбол "Халқаро илмий молия ва ҳисоб" журнали. – № 4, август, 2020 йил 3-бет.
6. Авлоқулов А.З. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида молиявий натижалар тўғрисидаги ахборотларни акс эттириш хусусиятлари» мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. –Т.:2020. 243-бет.

Yashi

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

İjtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

